

ISSN (E): 2181-4570

CONFERENCE SPECIAL ISSUE

CROSSREF Prefix: 10.66301

“ZAMONAVIY TA’LIMDA SUN’IY INTELEKTNI QO‘LLASHNING ISTIQBOLLARI VA MUAMMOLARI” XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN 22-23-MAY 2026-YIL

KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNING O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTIDAGI O‘RNI: HOLATI, MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI

ABDIHAMIDOV BEKZOD SHAVKATOVICH

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

“Iqtisodiyot” yo‘nalishi talabasi

bekzodabdihamidov@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida kichik biznes va tadbirkorlik sohasining rivojlanish jarayonlari, mavjud imkoniyatlar hamda muammolar tahlil qilinadi. Shuningdek, davlat tomonidan tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari, soliq imtiyozlari, kredit siyosati va investitsion muhitning shakllanishi ilmiy asosda yoritilgan. Muallif O‘zbekiston iqtisodiyotining raqamli transformatsiyasi sharoitida kichik biznesni rivojlantirishning istiqbolli yo‘nalishlarini ko‘rsatadi va xorijiy tajriba bilan solishtiradi.

Kalit so‘zlar: kichik biznes, tadbirkorlik, iqtisodiy rivojlanish, davlat siyosati, bandlik, raqamli iqtisodiyot, innovatsiya, investitsiya, soliq imtiyozlari, kredit siyosati, eksport.

Аннотация: В данной статье анализируются процессы развития малого бизнеса и предпринимательства в Республике Узбекистан, существующие возможности и проблемы. Также на научной основе освещаются механизмы государственной поддержки предпринимательства, налоговые льготы, кредитная политика и формирование инвестиционной среды. Автор рассматривает перспективные направления развития малого бизнеса в условиях цифровой трансформации экономики Узбекистана и проводит их сравнительный анализ с зарубежным опытом.

Ключевые слова: малый бизнес, предпринимательство, экономическое развитие, государственная политика, занятость, цифровая экономика, инновации, инвестиции, налоговые льготы, кредитная политика, экспорт.

Abstract: This article analyzes the development processes of small business and entrepreneurship in the Republic of Uzbekistan, as well as existing opportunities and challenges. It also provides a scientific overview of state support mechanisms for entrepreneurship, tax incentives, credit policy, and the formation of the investment environment. The author identifies promising directions for the development of small business in the context of the digital transformation of Uzbekistan’s economy and compares them with international experience.

Keywords: small business, entrepreneurship, economic development, public policy, employment, digital economy, innovation, investment, tax incentives, credit policy, export.

Kirish.

“ZAMONAVIY TA’LIMDA SUN’IY INTELLEKTNI QO‘LLASHNING ISTIQBOLLARI VA MUAMMOLARI” XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN 22-23-MAY 2026-YIL

Kichik biznes va tadbirkorlik har qanday mamlakat iqtisodiy rivojlanishining asosiy poydevorlaridan biri hisoblanadi. U nafaqat aholini ish bilan ta’minlaydi, balki yangi g’oyalar, innovatsiyalar va raqobatbardosh muhitni shakllantirishga xizmat qiladi. O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng bozor iqtisodiyotiga o‘tish jarayonida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka alohida e’tibor qaratildi.

Davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida ushbu sohani qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan bir qator farmon va qarorlar qabul qilindi. 2025-yil yakunlariga ko‘ra, kichik va o‘rta biznes subyektlari mamlakat yalpi ichki mahsulotida (YaIM) 55 foiz ulushni tashkil etish ko‘zda tutilgan bo‘lib, sanoatda – 34 foiz, eksportda – 34 foiz va aholi bandligini ta’minlashda esa 75 foizga yetkazish maqsad qilingan[1]. Biroq iqtisodiyotning barqaror va yuqori sur‘atdagi o‘shishini ta’minlash uchun kichik biznesni yanada rivojlantirish, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, soliq yukini optimallashtirish va moliyaviy infratuzilmani takomillashtirish talab etiladi.

Kichik biznesning milliy iqtisodiyotdagi o‘rni, uning rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar, davlat tomonidan amalga oshirilgan islohotlar, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari quyida tahlil qilinadi. Shuningdek, raqamli iqtisodiyot sharoitida kichik biznesni rivojlantirishning istiqbolli yo‘nalishlari va xorijiy tajriba bilan taqqoslash natijalari keltirilgan.

1. Kichik biznes – milliy iqtisodiyotning “drayveri” sifatida. Kichik biznes iqtisodiy o‘shishni tezlashtiradi, ishlab chiqarish tarmoqlarini diversifikatsiya qiladi, yangi ish o‘rinlari yaratadi va aholining daromad manbalarini ko‘paytiradi. Jahon banki ma’lumotlariga ko‘ra, rivojlangan mamlakatlarda kichik va o‘rta biznesning YaIMdagi ulushi odatda 60–70% ni tashkil etadi. O‘zbekiston 2025-yilda bu ko‘rsatkichni 55% ga yetkazishni maqsad qilgan[2].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-martdagi PF-50-son Farmonida kichik va o‘rta biznesning iqtisodiyotdagi o‘rnini oshirish bo‘yicha aniq maqsadli ko‘rsatkichlar belgilangan. Jumladan, kamida 600 nafar kichik va o‘rta biznes subyektlarining yiriklashishiga ko‘maklashish orqali ularni “champion” tadbirkorlarga aylantirish, 100 nafardan ko‘p ishchisi bor tadbirkorlik subyektlari sonini 4 mingga yetkazish vazifasi qo‘yilgan[2].

2. Davlat tomonidan yaratilgan shart-sharoitlar va amalga oshirilgan islohotlar. 2025-yilda tadbirkorlik uchun qulay muhit yaratish maqsadida quyidagi muhim islohotlar amalga oshirildi:

- Soliq tizimidagi islohotlar: Qo‘shilgan qiymat solig‘i (QQS) stavkasi 12 foizga tushirildi. Yillik aylanmasi 20 milliard so‘mdan yuqori bo‘lgan korxonalar foyda solig‘i bo‘yicha avans to‘laydigan bo‘ldi, bu esa 14 mingga yaqin tadbirkor ixtiyorida qo‘shimcha 1 trillion so‘mlik aylanma mablag‘ qolishini anglatadi.

- “Soliq amnistiyesi”: 2025-yil 19-avgustda Prezident tomonidan soliq tekshiruvlari bo‘yicha 20 mingdan ziyod tadbirkorlarda aniqlangan 16 trillion so‘mlik xato va kamchiliklar uchun jazo

“ZAMONAVIY TA’LIMDA SUN’IY INTELLEKTNI QO‘LLASHNING ISTIQBOLLARI VA MUAMMOLARI” XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN 22-23-MAY 2026-YIL

qo‘llanmaslik va 1-noyabrgacha ularni ixtiyoriy to‘g‘irlash imkoniyati berilishi e‘lon qilindi. Tadbirkorlik reytingi “toza sahifadan” boshlanadigan bo‘ldi.

- Kredit siyosatining yengillashtirilishi: 2025-yilda banklar tadbirkorlik loyihalari uchun 6 milliard dollar resurs jalb qilmoqda. Kelgusi yildan esa kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan alohida 1 milliard dollar mablag‘ ajratiladi. Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi “champion tadbirkor”larni qo‘llab-quvvatlash maqsadida 10 milliard so‘mgacha imtiyozli kredit beradi.

- “Yoshlar biznesi” dasturi (2025-2027): 2025-yil 14-fevraldagi PQ-62-son qarori bilan tasdiqlangan ushbu dastur doirasida 350 mingta yoshni qamrab olish, kamida 100 mingta qo‘shimcha ish o‘rinlarini yaratish ko‘zda tutilgan. AT “Aloqabank” tayanch “yoshlar banki” etib belgilangan. Dastur doirasida “Biznesga birinchi qadam” loyihasi bo‘yicha yoshlarga 100 mln so‘mgacha, “Yoshlar uchun ish o‘rinlari” loyihasi bo‘yicha esa 5 mlrd so‘mgacha imtiyozli kreditlar ajratiladi. Kreditlarning kamida 30 foizi xotin-qizlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltiriladi.

- Elektron tijoratni rivojlantirish: Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 28-dekabrda VMQ-885-son qaroriga asosan, 2025-yil 1-iyuldan elektron tijorat operatorlari faoliyati xabardor qilish tartibida amalga oshirilishi belgilandi. Elektron tijorat operatorlari sifatida faqat yuridik shaxslar – O‘zbekiston Respublikasi rezidentlari faoliyat yuritishi mumkin.

- “Yagona darcha” tizimi orqali tadbirkorlik subyektlarini ro‘yxatdan o‘tkazish va hujjatlarni rasmiylashtirish soddalashtirilgan[5].

3. Mavjud muammolar va cheklovchi omillar. 2025-yilda amalga oshirilgan islohotlarga qaramay, kichik biznesning rivojlanishida quyidagi tizimli muammolar saqlanib qolmoqda:

- Tijorat banklarining nisbatan yuqori foiz stavkalari moliyaviy resurslarga kirishni qiyinlashtirmoqda. Biroq, 2025-yil 1-iyundan boshlab o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar va kichik tadbirkorlik subyektlari uchun kreditlash shartlari yumshatildi;

- Qishloq va chekka hududlarda infratuzilma (yo‘llar, logistika, barqaror internet) yetarli darajada rivojlanmagan;

- Tadbirkorlarning marketing, raqamli savodxonlik va eksport bo‘yicha ko‘nikmalari yetarli emasligi;

- Ba‘zi hududlarda byurokratik to‘siqlar tadbirkorlik faolligini pasaytirishi mumkin[6].

4. Kichik biznesni rivojlantirishning asosiy omillari. Kichik biznesni barqaror rivojlantirish quyidagi asosiy omillarga bog‘liq:

- Soliq siyosatini yanada takomillashtirish – soliqlarni soddalashtirish va shaffof tizim yaratish (QQS stavkasining pasaytirilishi va soliq amnistiyasi buning yaqqol misolidir);

- Moliyaviy resurslarga kirishni osonlashtirish – kreditlarni subsidiyalashtirish va kafolatlash mexanizmlarini kengaytirish. 2025-yilda ishlab chiqarish, servis va yashil iqtisodiyot loyihalari uchun



“ZAMONAVIY TA’LIMDA SUN’IY INTELLEKTNI QO‘LLASHNING ISTIQBOLLARI VA MUAMMOLARI” XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN 22-23-MAY 2026-YIL

500 million so‘mgacha kreditlar qayta moliyalashtiriladi, bu orqali har yili 100 mingdan ortiq tadbirkorning kredit foiz stavkalari 6 foizgacha pasayadi;

- Innovatsion infratuzilmani rivojlantirish – biznes-inkubatorlar, texnoparklar va startap markazlarini ko‘paytirish. 2025-yil 1-iyul holatiga O‘zbekistonda ro‘yxatdan o‘tgan texnoparklar soni 31 tani tashkil etgan . Shuningdek, sanoat zonalari tarmog‘i kengaymoqda – Namangan viloyatining o‘zida 73 ta sanoat zonasi mavjud[3];

- Raqamli iqtisodiyot vositalarini keng joriy etish – onlayn buxgalteriya, elektron tijorat va raqamli to‘lov tizimlarini rivojlantirish. “Elektron tijorat to‘g‘risida”gi Qonun asosida soha huquqiy jihatdan tartibga solinmoqda;

- Xalqaro hamkorlikni kuchaytirish – xorijiy tajribani o‘rganish va korxonalarining eksport salohiyatini oshirish. 2025-yilda kichik va o‘rta biznesning eksportdagi ulushi 34 foizga yetkazilishi rejalashtirilgan.

Xorijiy tajriba – Janubiy Koreya va Germaniyadagi “innovatsion klasterlar” tizimi kichik biznes uchun katta natijalar bergan. O‘zbekiston ham texnoparklar va sanoat zonalari tarmog‘ini kengaytirish yo‘nalishida faol ish olib bormoqda.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, kichik biznes va tadbirkorlik O‘zbekiston iqtisodiyotining eng dinamik rivojlanayotgan sohasi bo‘lib qolmoqda. 2025-yilda davlat tomonidan qabul qilingan PF-50-son Farmon, “Yoshlar biznesi” dasturi, soliq amnistiyasi va QQS stavkasining pasaytirilishi kabi islohotlar ushbu sohada faoliyat yurituvchi subyektlarni qo‘llab-quvvatlashga xizmat qilmoqda[1].

Kelgusida kichik biznesni yanada rivojlantirish uchun quyidagilar zarur:

- Raqamli texnologiyalarni keng joriy etish (elektron tijorat infratuzilmasini rivojlantirish);
- Eksportga yo‘naltirilgan ishlab chiqarishlarni qo‘llab-quvvatlash;
- Kadrlar tayyorlash tizimini zamonaviy talablar asosida takomillashtirish;
- Hududlarda infratuzilmani (yo‘llar, internet, logistika) rivojlantirish;
- Moliyaviy resurslarga erkin va arzon kirish imkoniyatini yaratish.

Shu yo‘l bilan O‘zbekiston iqtisodiyoti raqobatbardosh, innovatsion va barqaror rivojlanishga erishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6011-son Farmoni – “Tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab – quvvatlash tog‘risida” , 2025-yil 24-iyul. (www.lex.uz 2-5-betlar).
2. O‘zbekiston Respublikasi statistika agentligi. “Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyat tog‘risida 2025-yilgi hisobot”. Toshkent: Statistika agentligi nashriyoti. 2025- yil. 18-27-betlar.
3. Jahon banki. “2025-yilgi jahon taraqqiyoti hisobot: Raqamlashtirish va iqtisodiy o‘sish”. Vashington: Jahon banki nashriyoti, 2025-yil 63-71-betlar.
4. O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi rasmiy sayti- www.stat.uz



ISSN (E): 2181-4570

CONFERENCE SPECIAL ISSUE

CROSSREF Prefix: 10.66301

“ZAMONAVIY TA’LIMDA SUN’IY INTELLEKTNI QO‘LLASHNING ISTIQBOLLARI VA MUAMMOLARI” XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN 22-23-MAY 2026-YIL

(Bo’lim: “Kichik biznes statistikasi”, 2025-yilgi ma’lumotlar, 3-6betlar).

5. Normativ – huquqiy hujjatlar portal.- www.lex.uz . (Bo’lim: Iqtisodiyot va moliya” hujjatlari to’plami, 2024-2025-yillar).
6. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. “O’zbekiston-2030 taraqqiyot strategiyasi”. – Toshkent: Adolat nashriyoti 2025. 45-52-betlar.